

UDK 633. 11. 631. 52

LALMI MAYDONLARDA ARPA O'SIMLIGINING QIMMATLI XO'JALIK BELGILARI

Aminova Gulzor Xolmurodovna,
doktorant,

Mamaraximov Bunyod Ikromovich, q.x.f.d., prof.
Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti
direktori

Annotatsiya: Respublikamiz lalmikor mintaqalarini tuproq-iqlim sharoitlarining xilma-xilligini e'tiborga olgan holda, har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoitlariga mos, serhosil, ertapishar, qurg'oqchilikka, issiqlikka chidamli, don va somon massasida ozuqa birligi yuqori bo'lgan navlarni yaratishni hamda ularni Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitida joriy etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Arpa, tizmalar, nav, namuna, seleksiya, o'simlik, bo'yi, sifat, oxirgi bug'in, hosil, chidamlilik.

Аннотация: Учитывая разнообразие почвенно-климатических условий в рисоводческих регионах нашей Республики, ставится цель создания сортов, пригодных для почвенно-климатических условий каждого региона, высокоурожайных, скороспелых, засухоустойчивых, жароустойчивых, с высоким содержанием питательных веществ в зерне и соломе, и их внедрения в различные почвенно-климатические условия нашей Республики.

Ключевые слова: Ячмень, гребни, сорт, узор, отбор, растение, высота, качество, последние заморозки, урожайность, выносливость.

Annotation: Taking into account the diversity of soil and climatic conditions in the rice-growing regions of our Republic, the goal is to create varieties suitable for the soil and climatic conditions of each region, high-yielding, early-ripening, drought-resistant, heat-resistant, with a high content of nutrients in grain



and straw, and their introduction into the various soil and climatic conditions of our Republic.

Key words: Barley, combs, variety, pattern, selection, plant, height, quality, last frost, yield, endurance.

Arpa o'ta moslashuvchanligi bilan tarqalish areali juda keng. U mo'tadil iqlim mintaqalarda kuzgi va bahorgi ekin sifatida, tropik mintaqalarda qishki ekin sifatida ekiladi. Markaziy Osiyo va Kavkaz tog'li xududlarida dengiz sathidan 3500 metr balandlikda, Janubiy Amerika, Xitoy va Nepalda-4000 metrgacha balandlikda ham arpa yetishtiriladi [2].

O'tkazilayotgan ilmiy izlanishlar, ilg'or xo'jaliklar tajribalari Respublikamizni turli mintaqalarining tuproq-iqlim sharoitlariga mos, qurg'oqchilik va issiqlikka, kasallik va zararkunandalarga hamda yotib qolishga chidamli, hosildor bo'lgan intensiv tipdagi arpa navlarini yaratish bugungi kunda seleksiyachi olimlar oldidagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston hududida o'tgan asrning boshlarida faqatgina mahalliy navlar ekilgan. Hozirgi davr o'simlik seleksiyasida genetika, fiziologiya, bioximiya, ekologiya va boshqa fanlar bilimlarini birgalikda foydalanishni taqozo etadi [3].

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti yangi navlarni yaratishga yo'naltirilgan seleksiyada dolzarb muammolarni yechishda ayniqsa arpa seleksiyasida kolleksiyaning ahamiyati ortib boradi. Shu boisdan, olib boriladigan tadqiqotlarda arpa nav va namunalari nazorat ko'chatzorida ekilib o'rganishdan asosiy maqsad yangi arpaning qimmatli xo'jalik belgilarini aniqlash doirasida lalmikor maydonlarga moslashgan, hosildor, don sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan namunalarni ajratib olishdan iborat.

Respublikaning lalmikor maydonlariga mos, halqaro ko'chatzorlardan keltirilgan arpaga mansub bo'lgan, ozuqa birligi yuqori hosildor navlarini yaratish soxaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham qurg'oqchilikka chidamli va ertapishar arpa navlarini yaratish seleksiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Chunki, o'simlik urug'dan unib chiqqandan uning hosili to'la

pishgungacha bo'lgan davr yoki o'suv davri qancha qisqa bo'lsa, hosil shuncha oz muddat ichida sifatli, nobudgarchiliksiz yig'ishtirib olinadi.

Jahon genofondidan intiraduksiya qilingan nav va tizmalardan foydalangan holda, lalmikor maydonlar uchun qurg'oqchilik, issiqlikka bardoshli hamda yuqori hosil beradigan arpaning yangi seleksion ashyolarini yaratish. Shu maqsadda, dala sharoitida issiqlikka bardoshliligi va don sifat



ko'rsatkichlarini boholash hamda biometrik o'lchovlar rivojlanish fazalarida o'simlik bo'yi va oxirgi bug'in uzunligi tahlil qilindi.

Har bir biometrik ko'rsatkichni alohida, ilmiy–amaliy nuqtai nazardan nav va namunalari andoza navlarga nisbatan 10–13 sm baland bo'lgan. Arpa ekinida o'simlik bo'yi 55–65 sm lalmi sharoit uchun optimal hisoblanadi. Demak, jadvaldagi ko'pchilik namunalar optimal bo'y diapazonida, bu ularning moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Oxirgi bo'g'in (boshq osti bo'g'in) uzunligi boshqqa ozuqa moddalarni yetkazib berish, don to'lish jarayoni, hosil elementlari shakllanishi bilan bevosita bog'liq.

Oxirgi bo'g'in uzunligi 11,4 – 24,3 sm o'rtacha: 15,5 sm bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ayrim namunalarda oxirgi bo'g'in andozadan 40–50 % uzun bo'lgan. Agronomik ahamiyati don to'lish yaxshilanadi, boshq og'irligi oshadi, qurg'oqchilikka chidamliligini belgilab beradi. Shundan, 18–22 sm bo'lgan namunalar yuqori hosil potensialiga ega deb baholanadi.

Yillar bo'yicha farq (2024–2025) 2025 yilda ko'p namunalarda o'simlik bo'yi va oxirgi bo'g'in uzunligi 2024 yilga nisbatan yuqori bo'lgan.

Bu holat namunalarning ekologik plastikligi yuqori ekanini ko'rsatadi. Ko'rsatkichlar orasidagi katta farq genetik xilma-xillik yuqori, seleksiya uchun tanlash imkoniyati keng ekanini anglatadi [1].

Nazorat ko'chatzoridagi o'rganilgan arpa nav va namunalari o'simlik bo'yi hamda oxirgi bo'g'in uzunligi bo'yicha sezilarli farq qildi. O'simlik bo'yi 47,45–71,8 sm, oxirgi bo'g'in uzunligi esa 11,4–24,3 sm oralig'ida o'zgardi. Ayrim chetdan keltirilgan seleksiya namunalari andoza navlarga nisbatan ustun biometrik ko'rsatkichlarga ega bo'lib, lalmi sharoitga yuqori moslashuvchanlikni namoyon qildi.

Lalmi maydonlar uchun o'simlik bo'yi va oxirgi bug'in uzunligi eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, qurg'oqchilikka va issiqlikka chidamli belgi va xususiyatlarni nomoyon qiladi. Aynan, o'simlik bo'yining ildiz tizimiga o'zviy bog'liqligi hamda nam bilan yarim ta'minlangan hududlar uchun mos kelishi kuzatilgan [4-5].

1-jadval.

Nazorat arpa ko'chatzoridagi nav va namunalarining biometrik o'lchovlar natijalari.

№	Nav va namunalar nomi	o'simlik bo'yi, sm			oxirgi bo'g'in uzunligi, sm		
		2024	2025	o'rtacha	2024	2025	o'rtacha
1	ICB10-0195-0AP-0SU-0SU-0SU-ANK10	60,7	69,2	65	15,4	17,2	16
2	ICB10-0447-0AP-0SU-0SU-0SU-ANK8	45,7	54,2	50	11,6	13,4	13
3	ICB10-0769-0AP-0SU-0SU-0SU-ANK8	63,1	70,4	67	15,1	16,9	16
4	ICB10-0770-0AP-0SU-0SU-0SU-ANK6	55,2	63,7	59	10,5	12,3	11
5	ICB10-0781-0AP-0SU-0SU-0SU-ANK1	46,8	55,3	51	11,2	14,5	13

6	ICB10-0894-0AP-0SU-0SU-0SU-ANK2	56,3	59,5	58	14,4	16,2	15
7	ICB10-0457-0AP-0SU-0SU-0SU-ANK9	43,2	51,7	47	10,8	15,8	13
8	ICB10-0468-0AP-0SU-0SU-0SU-ANK1	54,2	62,7	58	11,7	12,2	12
9	ICB10-0509-0AP-0SU-0SU-0SU-ANK7	56,3	64,8	61	12,5	14,2	13
10	Lalmikor (andoza)	58,9	67,4	63	14,8	16,6	16
11	ISB-20001	62	67,7	65	14,4	16,2	15
12	ISB-20003	55,6	64,1	60	16,7	22,3	20
13	ISB-20006	45,6	54,1	50	16,6	18,4	18
14	ISB-20007	63,3	71,8	68	18,9	24,3	22
15	ISB-20008	60,9	69,4	65	15,2	17	16
16	ISB-20010	61,7	70,2	66	18,3	20,1	19
17	ISB-20011(Temur-3)	50,6	59,1	55	11,4	13,2	12
18	ISB-20013	56,3	64,8	61	18,5	20,3	19
19	ISB-20017	51,8	60,3	56	16,3	18,1	17
20	ISB-20018	50,2	58,7	54	12,7	14,5	14
21	Qamashi (andoza)	53,6	54,8	54	12,9	14,3	14
	Yuqori	63,3	71,8	67,55	18,9	24,3	21,6
	Past	43,2	51,7	47,45	10,5	12,2	11,4
	O'rtacha	54,9	63,0	58,9	14,4	16,7	15,5

Ushbu tajriba ko'chatzorida o'rganilgan arpa namunalarining biometrik o'lchovlar olib borilgan 13 ta namunalardan barcha ko'rsatgichlari bo'yicha tanlab olindi va seleksiyaning keyingi bosqichlari uchun o'tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdukarimo
v D.T., Safarov T., Ostanaqulov T.E. Dala ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va genetika asoslari. Toshkent "Mexnat" 1989 y.
2. Mamatqulov T., Xoldorov A. Lalmikor maydonlarda arpa yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent 2020 yil B15.
3. Sarmanov Sh. va boshqalar Arpa yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. Nasaf-2023y.
4. **Egamov I., Meliboev M., Qodirova M. Arpa navlarida yotib qolishga chidamlilik hususiyatlari. O'zbekiston qishloq xo'jolk jo'rnali. 2017y 7 soni. B 36.**

